

O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISH**O'ZBEK TILINI O'QITISH METODIKASINING
ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/JUP4703

Gulshan Asilova¹Beg'am Qarayeva²**Abstract**

O'zbek tili qadimiy tillardan bo'lib, Oltoy tillar oilasining turkiy tillar turkumiga kiradi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni 40 milliondan oshdi. Bu eng avvalo, O'zbekiston aholisi, MDH davlatlari, shuningdek, Yevropa, AQSh, Kanada va boshqa ko'plab davlatlarda yashayotgan, o'zbek tilini o'za tili sifatida tan olib, bu tilda erkin so'zlasha oladigan kishilardir. O'zbekistonning tarixi, madaniyati, san'ati, o'zbek adabiyoti, milliy urf-odatlari va an'analariga qiziqish ortgan sari, o'zbek tilining jahondagi nufuzi ham ortib bormoqda. Shu bilan birga, o'zbek tilini o'rganishning intensiv hamda samarali metodikalariga, zamonaviy darsliklar va o'quv qo'llanmalarga ehtiyoj yuqori. Biroq bu sohada hali ko'plab muammolar mavjud. Xususan, o'zbek tilini xalqaro standartlar bo'yicha, tilni bilish darajalari tizimi asosida o'qitish hali yo'lga qo'yilmagan. Maqolada o'zbek tilini o'zga tillar vakillariga o'qitishning tarixi, taraqqiyoti hamda bugungi holati haqida so'z yuritilgan. Uzoq yillar davomida o'zbek tilini o'qitish jarayonida to'plangan tajriba, tilni ona tili va xorijiy til sifatida o'qitishning xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, til ta'limi, rus-tuzem maktablari, o'zga til vakillari, ona tili, ikkinchi til, xorijiy til, o'zbek tili qo'llanmaları,

¹Asilova Gulshan Asadovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-manzil: asilovagulshan@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8462-7120

²Qarayeva Beg'am Xolmanovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), Moskva davlat lingvistika universiteti.

E-manzil: karaeva_61@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-7793-6112

Иқтибос учун: Asilova, G.A., Qarayeva, B.X. 2023. "O'zbek tilini o'qitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari". O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1(5): 63-74. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/JUP4703.

o'zbek tili lug'atlari, deskriptor.

"Mening metodim eng yaxshi, ilmiy va tilni o'rghanishning eng tezkor metodi deydigan odamni barcha kasalliklarni davolaydigan universal dorini reklama qilayotgan shifokorga o'xshatish mumkin."

P. Xegbolt

KIRISH

Har qanday tilning ahamiyati uning jamiyatdagi, davlatdagi maqomiga bog'liq. Maqomiga ko'ra xalqaro, davlatlararo, davlat hamda lokal tillar mavjud. Davlat miqyosida til ta'limiga bo'lgan talab muayyan geosiyosiy hududlarda madaniyatlararo integratsiya darajasi, xalqaro munosabatlar va millatlararo hamkorlikda siyosiy-iqtisodiy va madaniy ehtiyojlar ko'lamiga bog'liq. Bu esa tillarni bilishni inson shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatining zarur tarkibiy qismiga aylantirib qo'ydi. O'zbek tili ta'limiga ham ushbu tavsifga ko'ra turlicha yondashish mumkin.

Insonni o'zining ona tilidan boshqa tilni o'rghanishga undaydigan sabablar ko'p. Bularga turli tillar va madaniyatlar uyg'unlashib ketayotgan bugungi sharoitda har qanday tilni muloqot vositasi sifatida o'rghanish muhimligini anglash; ta'limning har bir bosqichida tilni bilish darajasiga qo'yiladigan talablar va ushbu darajani aniqlashga imkon beradigan texnologiyalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish; o'zga tillarni o'rghanish va ularda muloqot qilish istagi kiradi. Ushbu sabablar tilga va tilni o'rghanishga bo'lgan shaxsiy ehtiyojni kuchaytiradi.

O'zbek tilini chet tili sifatida o'rghanish butun ta'lim tizimida global o'zgarishlar bo'layotgan bir davrda amalga oshirilmoqda. Shu sababli, tilni o'rghanish maqsadlari, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari va o'qitishning maqsadlari ham o'zgarganligi kuzatiladi. Bugungi kunda o'zbek tili ta'limi sohasining jadal rivojlanayotganligi o'qituvchi oldiga yangi talablarni qo'yadi. U nafaqat o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini mukammal egallagan bo'lishi, balki ularning asosida yotgan qonuniyatlar mohiyatini anglashi, ularning manbasi va rivojlanishi istiqbollarini ko'ra bilishi lozim. O'zbek tilini o'zga til vakillariga o'rgatishda o'qituvchidan ta'lim jarayonini o'zga tillar va madaniyatlar sohasidagi yaxlit tizimli yondashuv asosida modellashtirish uchun zarur darajadagi kompetentlikka ega bo'lish talab etiladi.

ASOSIY QISM

Ona tili, ikkinchi til va xorijiy til tushunchalari

"Xorijiy til" tushunchasi "ikkinchi til" tushunchasi bilan uzviy bog'liq.

Xorijiy til yoki *chet til* – mактабда о'рганилган ва функсионал жиҳатдан cheгаралangan til bo'lib, asosan millatlararo muloqotda qo'llanadi. Xorijiy til unda so'zlashuvchi, uning egasi bo'lgan xalq ushbu davlatdan tashqarida yashaydigan, fuqarolarning aksariyati uchun ona tili bo'lмаган tildir.

Ikkinci til shaxsning ona tilidan keyin o'рганадиган tilidir. Keyinchalik hayot tarzi va sharoitga qarab bu til функсионал жиҳатдан yoki ikkinchi til sifatida qo'llanadi, yoxud birinchi o'ringa chiqadi.

Ona tili va xorijiy (yoki o'zga) tilni o'рганиш орасида katta тафовут mavjud. Ona tilini inson ongli ravishda o'рганишга intilmaydi, balki kichik yoshidan fikrleshgа o'рганиш jarayonida o'zlashtiradi. Ona tili bola uchun, avvalo, jamiyatning tajribasini o'zlashtirish vositasi, keyin esa o'z fikrini ifodalash vositasi bo'lib hisoblanadi. Taniqli psixolog L.Vigotskiy buni quyidan yuqoriga qarab, ya'ni ixtiyorsiz va ongsiz ravisgda o'рганиш deb talqin qilgan [Выготский 1999, 27]. Bu esa maktabdagи til ta'limidan farq qiladi, ya'ni til yuqorida pastga – tizim, qoidalar majmui sifatida o'рганилади. Bunda o'quvchiga tilni amaliy egallash uchun zarur bilimlar beriladi. Bu borada olimlar quyidagi fikrlarni bildirganlar.

"Ona tili ilk o'рганилган va eng ko'p qo'llanadigan til, ona tili bo'lмаган til esa o'рганилishi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan va функсионал жиҳатдан yordamchi tildir" [Ағманова 2007, 16].

"Insonning ikkita tuqqan onasi bo'lмаганidek, uning ona tili ham ikkita bo'lmaydi. Biroq "o'рганилган til insonning hayotida ona tilidan ham muhimroq bo'lib qolishi mumkin" [Костомаров 1991, 10].

"Toshkentda tug'ilib o'sgan tojik millatiga mansub odam uchun tojik tili ona tili bo'lib hisoblanadi; rus tili bilan bir qatorda kundalik muloqot tili bo'lishi ham mumkin, lekin, undan farqli ravishda, hech qanday huquqiy maqomga ega bo'lmaydi, etnik ozchili-kning tiligina bo'lib qoladi" [Белинская 2011].

Demak, inson tug'ilganidan boshlab eshitgan va so'zlashishni o'ргangan tilni ona tili, undan keyin o'ргangan tilni ikkinchi til hisoblanadi. Shu tariqa, ikkinchi til ham, xorijiy til ham ona tili bo'lмаган, boshqa tillardir, ya'ni shaxsning bolaligidan o'ргangan, vazifasi жиҳатдан birlamchi tillari emas.

Bugungi kunda xorijiy tilni o'рганишнинг bosh maqsadi – til

tizimini o'rganishdan ham ko'ra (lingvistik kompetensiya), ko'proq muloqot layoqatiga ega bo'lisdirdir, ya'ni insonning o'rganilayotgan til vositalari asosida u yoki bu faoliyat doirasida nutqiy muloqotni olib borishga tayyorligidir. Muloqotga kirisha olish layoqati asosida tilga doir bilimlar, nutqiy ko'nikma va malakalar yig'indisi turadi, bularning barchasi darslar jarayonida shakllantiriladi va o'rganiladi [Щукин 2011, 155].

Ma'lumki, til o'qitish metodikasi pedagogika, lingvistika, adabiyotshunoslik, tarix, tarjimashunoslik, mamlakatshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, psixologiya, psixolingvistika, nutq kommunikatsiyasi nazariyasi kabi fanlarning tutashuvida rivojlanadi. Ushbu fanlarga tayanib, ularning natijalarini integratsiya qilib, metodika o'zining aniq muammolarini ishlab chiqadi, uning o'z tadqiqot predmeti mavjud. O'zbek tili o'zga til vakillariga, ya'ni xorijiy til sifatida qachon o'qitila boshlanganligi haqidagi ma'lumotlar o'lkamiz tarixidagi muhim siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'liq.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish tarixidan

O'zbek tilini o'zga tillar vakillariga o'qitishga asos solinishi XIX asrning 60-yillarda Chor Rossiyasining o'lkamizni bosib oliishi va mustamlaka siyosatini amalga oshirishni boshlaganligi bilan bog'liq. Ma'lumki, mahalliy aholining tili, madaniyatini o'rganish, bundan chor siyosatini yuritishda foydalanish uchun Turkiston o'lkasida rus-tuzem maktablari tashkil qilingan. Birinchi rus-tuzem maktabi 1884-yilda Toshkentda ochilgan. 1870-yil Samarqandda, 1873-yil Chimkentda ish boshlagan maktablar ham rus-tuzem maktablari deb qayta nomlangan. Bu maktablarning faoliyati 1886-yilda qonuniy tarzda tasdiqlanib, 1917-yilgacha yuritilgan.

Rus-tuzem maktablarini moliyalashtirish aralash tarzda: qisman Turkiston o'lkasi ma'muriyati tomonidan, qisman esa homiyilar tomonidan amalga oshirilgan. Dastlab ularda ta'lim 4 yillik bo'lib, ayrimlarida tayyorgarlik sinflari bor edi. Keyinchalik 2 yillik qizlar rus-tuzem maktablari ham ochilgan. Rossiyalik o'qituvchilar kuniga 2 soatdan rus tili va arifmetika fanlarini o'qitib, o'quvchilar bilan rus tilida so'zlashardilar. Mahalliy o'qutuvchilar keyingi 2 soat davomida ona tili, arab tili, yozuv, din ilmidan dars berardilar. Ushbu maktabarning o'quvchilari asosan 7–17 yoshda bo'lган. Shaharlarda kechki rus-tuzem maktablari ham faoliyat yuritgan, ularda haftasiga 3 marta o'qish tashkil qilingan va katta yoshlilar ta'lim olishgan. Birinchi rus-tuzem maktabiga direktor etib V.P.Nalivkin (1852–1918) tayinlangan.

1877-yilda Turkiston o'lkasi xalq o'quv muassasalari noziri etib arabshunos va turkshunos olim N.P. Ostroumov (1846–1930) tayinlangan. U ustozi N.I.Ilminskiyning tavsiyasiga ko'ra o'sha yili Qozondan Toshkentga yuborilgan edi. Bu yerda u islomshunos olim sifatida izlanishlarini davom ettirib, maorif sohasida mansab pill-apoyalaridan ko'tarilgan. N.Ostroumov «Материалы к изучению наречия сартов русского Туркестана» (1898) va «Этимология сартовского языка» (1910) asarlari bilan tanilgani tufayli akademik V.V.Bartold uni “Turkistonshunoslikning otasi” deb atagan.

Mahalliy xalqnini boshqarish ehtiyoji ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-ruscha, ya'ni o'zaro muloqotni amalga oshirishni ta'minlovchi lug'atlarning yaratilishini taqozo qildi. Bunday lug'atlar dastlab rossiyalik olimlar, davlat xizmati vakillari tomonidan yaratildi. Ular sirasiga A.Starchevskiyning “Переводчик с русского языка на сартовский” (1878), S.Lapinning “Русско-узбекский словарь” (1984), V.Nalivkin va M.Nalivkinalarning “Русско-сартовский и сартовско-русский словарь” (1884) deb nomlangan lug'atlarini kiritish mumkin.

1890-yilda V.Nalivkin Turkiston o'lkasi xalq o'quv muassasalari noziri lavozimiga tayinlanadi. U Turkiston xalqlari tarixi va zamonaviy hayotini ichidan biladigan mutaxassis bo'lib, o'zbek, tojik va arab tillarini egallagan, mahalliy tilda bir necha darsliklar va ko'rsatmalar («Русско-сартовский и сартовско-русский словарь общеупотребительных слов, с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда» (1884); «Грамматика сартского языка Андижанского наречия» (1884); «Руководство к практическому изучению сартовского языка» (1898, 1911)) tuzgan olim edi. Uni birinchi ruscha-o'zbekcha lug'at muallifi sifatida e'tirof etishgan [Германова 2021].

V.Nalivkinning faoliyati haqida juda qiziqarli manbalar mavjud. Jumladan, u Turkistonga harbiy ofitser sifatida kelganligi hamda Xiva va Qo'qonga qilingan harbiy yurishlarda ishtirok etganligi ma'lum. Tinch aholiga nisbatan qilingan zo'ravonliklarning guvohi bo'lgan Nalivkin iste'foga chiqadi. Uni Farg'ona viloyati Namangan uyezdi boshlig'iga o'rinosar etib tayinlashadi. 1878-yilda u lavozimi mini tark etadi va qolgan umrini Farg'ona xalqlarining etnografiyasiaga bag'ishlaydi. Namanganning Nanay qishlog'ida yashab, turmush o'rtog'i Mariya Vladimirovna bilan o'zbek tilini mukammal o'rgani-shadi [Лукашова 2021, 15].

Nalivkin madrasa o'quv hayotini isloh qilishni, jumladan, arab imlosi kitobini o'zbek tilida tuzishni, musulmon huquqshunosligi va

diniga oid barcha kitoblarni o'zbek tiliga o'girishni, arab va fors tilidagi darsliklarni ona tilidagi darsliklar bilan almashtirishni taklif qilgan.

V.Nalivkin 1886-yilda davlat xizmatchilarini va harbiy xizmatchilar uchun o'zbek tili kurslarini tashkil qilgan. Mazkur kurslarda til o'rgatish jarayonida Nalivkin tinglovchilarni mahalliy urf-odatlar hamda badiiy adabiyot namunalari bilan tanishtirgan.

1896-yilda o'zbek tili ilk bor Toshkent real bilim yurtida M.S.Andreyev tomonidan o'qitila boshlangan. U Nalivkining shogirdi va Turkiston Sharq institutining birinchi direktori edi. Andreyev «Руководство для первоначального обучения сартовскому языку в Ташкентском реальном училище» (1896) qo'llanmasini yaratgan. Uning faoliyatini mashhur turkshunos olimlar P.E.Kuznetsov Toshkentda, V.L.Vyatkin Samarqandda davom ettirishgan.

1917-yilgacha rus-tuzem maktablarida S.M.Gramenitskiy, Aliasqar Kalinin, Saidrasul Saidazizovlar rus millati vakillariga o'zbek tilini o'rgatish bilan shug'ullangan. Turkiston hududida yashovchi boshqa millat vakillariga o'zbek tilini o'rgatishga bag'ishlangan dastlabki o'quv qo'llanmalarning yaratilishi aynan shu maktablarning faoliyati bilan bog'liq [Muxitdinova 2021, 13].

O'zbek lug'atchiligining rivojiga jadidchilik harakati vakillari katta hissa qo'shganlar. Xususan, Ishoqxon Ibratning arab alibosidagi "Lug'oti sitta alsina" nomli 6 tildagi lug'ati (1901), Elbekning "O'zbekcha shakldosh so'zlar lug'ati" (1924), Ashurali Zohiriyning "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at"i (1927), Abdulla Qodiriy va Saxiy Rahmatiyning "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik"i (1934), Abdurauf Fitratning o'zbek tili leksikografiyasiga doir ilmiy ishlari shular jumlasidandir [Нормаматов 2020, 249]. Shuningdek, o'sha davrda yaratilgan lug'atlarga atoqli tilshunos olim Nazir To'raqulovning "Rus-o'zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug'atchasi" (1922), V.Brilevning jadid adibi Shokirjon Rahimiyning "Kattalar yo'ldoshi" darsligi uchun tuzgan o'zbekcha-ruscha lug'ati (1925), K.K.Yudaxinning "O'zbekcha-ruscha qisqa lug'at"i (1927) o'sha davr uchun yangi va juda kerakli adabiyotlardan hisoblangan.

O'zbek tili o'quv rejasiga asosiy fan sifatida ilk bor 1933-yildan kiritilgan bo'lib, bu davrga kelib o'zbek tili maktablardagina emas, balki oliy o'quv yurtlarida ham o'qitila boshlandi. Xususan, Turkiston Sharq institutida rus guruahlari uchun maxsus o'zbek tili kafedrasining tashkil etilishi va hatto maxsus dastur asosida davlat muassasalarida ham o'zbek tilini o'rganishning tashkil qilinishi o'zbek tilining rus guruahlari uchun o'qitilishida sezilarli siljishlar bo'lishiga olib keldi.

O'zbek tilini o'zga tillar vakillariga o'qitish metodikasiga mashhur filolog-turkshunos olim V.V.Reshetov (1910–1979) katta hissa qo'shgan. Reshetov Toshkentda tug'ilgan, SAGUDA o'zbek va rus tillaridan dars bergan, rus va turkiy tillarning qiyosiy tipologiyasi, o'zbek dialektologiyasi bilan shug'ullangan. 1940-yilda V.V.Reshetov "O'zbek tilining marg'ilon shevasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1952-yilda "Toshkent viloyatining qurama shevalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Olim o'zbek dialektologiyasida ilk bor qurama shevalarining 49ta lingistik xaritasini yaratgan [Ашуррова 2017, 20].

Turli yillarda o'zbek tili tarixini tadqiq qilgan yirik olimlardan venger sharqshunosi Arminiy Vamberi (1832–1913), rus olimlari V.V.Bartold (1869–1930), Y.D.Polivanovlarning (1891–1938) ishlari soha rivojida muhim o'rinn tutadi.

Taniqli turkshunos I.A.Batmanov o'zbek tilini o'qitish metodikasi, o'zbek tovushlari va grammatik materiallarni o'rganish tartibi sohasida faoliyat yuritgan yetuk olim sifatida tanilgan. I.A.Batmanovning o'zbek tili o'qituvchilari uchun yaratgan qator dastur va qo'llanmalari o'sha yillarda o'zbek tili ta'limining didaktik asoslarini yaratishda muhim omil bo'lgan. XX asr o'rtalarida yaratilgan lug'atlar, xususan, I.A.Kissen, K.S.Koblov, R.S.Badalovlarning "O'zbekcha-ruscha qisqa lug'at'i" (1942), A.K.Borovkovning "O'zbekcha-ruscha lug'at'i" (1959) ko'p yillar davomida qayta-qayta nashr qilingan. O'zbek olimlaridan X.Asalov (1970), Q.Holqberdiyev (1971), R.Yo'ldoshev (1979), S.Nazarovalarning (1980) ilmiy ishlari ta'lim o'zga tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish metodikasi rivojiga hissa qo'shgan.

Mustaqillik yillarda o'zbek tilini davlat tili sifatida mamlakatimizda yashovchi turli millatlar vakillariga o'qitish ta'lim metodikasini rivojlantirishning yangi bosqichini belgilab berdi. O'zbek tili ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda kichik guruhlarga bo'lingan holda o'qitala boshlandi. Ta'lim rus va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishda "o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish" deb, keyingi yillarda esa milliy maktablarda o'zbek tilini o'qitishga nisbatan ona tili, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda esa o'zbek tili deb yuritila boshlandi. Maktab ta'limida va ba'zi tadqiqot ishlarida o'zbek tilini o'qitish davlat tili ta'limi deb ham yuritildi [Jo'rayev 2005, 13]. Mustaqillik yillarda o'zbek tilini davlat tili sifatida uzuksiz ta'limning turli bosqichlarida o'qitish muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Shuningdek, O'zbekistonda va xorijda

faoliyat yuritayotgan o'zbek tili o'qituvchilari tomonidan ona tili ingliz, nemis, fransuz, xitoy, koreys, rus tillari bo'lgan o'rganuvchilar uchun o'quv qo'llanmalar hamda lug'alar nashr qilindi.

O'zbek tilini o'qitish metodikasining bugungi holati

Bugungi kunda o'zbek tilini o'zga til vakillariga o'qitish sohasi uni xorijiy til sifatida o'qitish metodikasi darajasiga olib chiqildi. Bu o'zbek tilini dunyoga keng targ'ib qilish, o'zbek tilida so'zlovchilarning tobora ko'payib borishiga yordam beradi.

Sh.Sodiqova o'zbek tilini xorijiy til sifatida jadal o'qitish uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlaydi:

– kommunikativ-nutqiy, leksik-grammatik materialni ma'lum bir tizim asosida berish;

– imlo qoidalarini o'rgatish;

– og'zaki va yozma nutq ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish;

– lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish;

– matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

– o'quvchilar so'z boyligi va nutqiy malakasini oshirish;

– o'zbek xalqining milliy-madaniy o'ziga xos jihatlariga oid bilimlarni kengaytirish;

– o'quvchilarni erkin fikrlashga, mustaqil mushohada qilishga undash;

– nutq madaniyati borasida asosiy zaruriy bilimlarni berish [Содикова 2017].

Shu bilan birga, o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning asosiy muammosi sifatida til bilish darajalarini baholash tizimi ishlab chiqilmaganligini ko'rsatish zarur.

Ma'lumki, XX asrning o'rtalarida metodistlar ta'limning har bir bosqichi nihoyasida egallanishi zarur bo'lgan nutq darajasini haqida aniq tasavvur hosil qilish to'g'risida mulohaza yuritishni boshlaganlar. Xususan, har bir sinfda erishiladigan o'sish darajasi ni aniq ko'rish, unga qanday erishilganlik haqida batafsil ma'lumot olish muhim ahamiyat kasb eta boshladi. An'anaviy til ta'limiga xos bo'lgan alohida ko'nikma va malakalarini tekshirish amaliyoti samara bermay qo'ydi. O'zga tildagi nutqni egallahning umumiy darajasini aniqlash dolzarb masalaga aylandi.

Tilni egallah darajasi deganda til o'rganuvchining nutqiy ko'nikma-malakalari shakllanganligi darajasi tushuniladi. Dunyoda tilni egallah darajasini aniqlash muammosi xalqaro hamkorlikning rivojlanishi va "Chegarasiz Yevropa" konsepsiyasining shakllanishi bilan paydo bo'ldi. Mazkur konsepsiya jahonda xorijiy tillarning

tarqalishi va o'rganilishiga katta o'rin ajratildi. XX asrning 70-yillardan boshlab Yevropada o'zga tilda muloqot kompetensiyasi modelini asoslash va uning asosida xorijiy tilni egallahash darajalarining chegaralarini ishlab chiqish bo'yicha faol ish olib borildi. Bu jarayon yakunida 1996-yilda Strasburgda "Zamonaviy tillar: o'rganish, o'qitish, baholash. Xorijiy tilni egallahashning Umumyevropa kompetensiyalari" nomli hujjat qabul qilindi. Unda ta'limning maqsadi sifatida tilni egallahash darajalarining ko'rsatkichlari (parametrlari) va baholash mezonlari, shuningdek, test texnologiyalarini qo'llagan holda baholash usullari ko'rib chiqilgan. Kommunikativ kompetensianing tarkibiy qismlari sifatida lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, ijtimoiy-madanly, ijtimoiy, strategik kompetensiyalar belgilandi. Natijada "Xorijiy tilni egallahashning Umumyevropa kompetensiyalari"da tilni egallahash darajalari quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi [Asilova 2023, 22]:

A daraja (boslang'ich)	B daraja (erkin)	C daraja (mukammal)
A1 - yashash uchun zarur daraja	B1 - o'rta daraja	C1 -yuqori daraja
A2 - o'rta darajaga yaqin daraja	B2 - o'rtadan yuqori daraja	C2 - mukammal daraja

Shu tariqa, mazkur tizim 6 ta o'zaro bog'liq darajani o'z ichiga oladi. Qayd etish zarurki, ushbu darajalar orasidagi chegaralar ni belgilash ham, tizimning o'zi ham subyektiv xususiyatga ega. Shu bois uning ishonchliligi til o'rganishning turli omillariga, xususan, maktabda yoki o'quv kursida o'rganish, til o'rganuvchining yoshi, til o'rganishdan maqsad kabilarga bog'liqdir. Ushbu tizimdan foydalanish til ta'limining alohida bo'g'inlari orasidagi uzviylikka erishishga asos bo'la oladi.

Til egallahash darajalarini tavsiflash uchun har bir darajada erishilishi kerak bo'lgan malakalarning deskriptorlari (ta'riflari) ishlab chiqilgan. Bu tizim barcha xorijiy tillarni o'qitishda qo'llanishi mumkinligi, tilni amaliy egallahashga qaratiganligi, turli yoshdag'i va kasb-dagi til o'rganuvchilar manfaatlarini aks ettirganligi tufayli dunyoda keng tarqaldi.

XULOSA

Jahon mamlakatlarida o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitilishiga endilikda alohida e'tibor berilayotgani bois, bu borada qilinadigan ishlar ulkan yo'nalishning tizimi, dasturlari, qo'llanmalari, turli mavzularda lug'atlarning ishlab chiqilishini taqozo etadi va hozirgi dolzarb vazifa bajarilishi lozimligini kun tartibiga chiqardi. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitilishni yanada ommalashtirish uchun o'zbek tilini egallahash darajalarini ishlab chiqish quyidagi im-

koniyatlarni beradi:

- 1) o'zbek tilini o'rganishda erishilgan natijalar haqida aniq va xolis tasavvurga ega bo'lish;
- 2) o'zbek tilida muloqot tajribasiga baho berish, zarur hollar-da ta'lif usullarini takomillashtirish.

Mazkur tizim o'zbek tiliga joriy qilinishi, o'zbek tilini o'rganuvchilarning til tayyorgarligiga bo'lgan yagona talablarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Shunda ona tilimiz dunyoning ko'plab mamlakatlarida o'qitilishiga erishiladi, jahonning mamlakatimizga e'tibori kuchayadi va ayni paytda, Vatanimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeyi yanada oshadi.

Adabiyotlar

- Агманова, А.Е. 2007. Предикативность: теория и моделирование усвоения второго языка. Монография. Павлодар: ЭКО, 259 с.
- Asilova, G.A. 2023. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). Toshkent: Lesson-Press, 163 b.
- Ашуррова, Д.У. 2017. Виктор Васильевич Решетов – один из основателей и первый ректор РПИРЯиЛ // Ўзбекистонда хорижий тиллар. Тошкент, №3. Б. 16–18.
- Белинская, Е.П. 2011. Смысловые характеристики понятия «язык» в современной российской этнопсихологии (на материале научных периодических изданий) // Психологические исследования. Москва, №4 (18).
- Выготский, Л.Г. 1999. Мышление и речь. Изд. 5, испр. Москва: Лабиринт, 352 с.
- Германова, В. 2021. У истоков узбекского литературного языка // Vesti.uz <https://vesti.uz/u-istokov-uzbekskogo-literaturnogo-yazyka/>
- Жўраев, М.Р. 2005. Ўзбек тилини давлат тили сифатида ўргатиш методикасининг шаклланиши (олий ўқув юртларида давлат тили таълими мисолида): Пед. фан. номзоди дис. Тошкент: ТДПУ. 166 б.
- Костомаров, В.Г. 1991. Еще раз о понятии «родной язык» // Русский язык в СССР. Москва, №1. С. 9–15.
- Лукашова, Н.М. 2021. Вклад русской интеллигенции в развитие узбекского языка // "CHRONOS" общественные науки. №2 (22). С. 14–19.
- Muxitdinova, X.S. 2021. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). Toshkent: Vneshinvestprom. 296 b.
- Нормаматов, С.Э. 2020. Жадид адибларининг ўзбек лугатчилиги анъаналари ривожидаги ўрни // Ўзбекистонда хорижий тиллар. №3 (32). Б. 246–256.
- Содиқова, Ш.Б. 2017. Ўзбек тилини хорижий тил сифатида ўқитиш масалалари // XXI аср: фан ва таълим масалалари (илмий

электронный журнал). Ташкент, №2.

Щукин, Н.А. 2011. Методика обучения речевому общению на иностранном языке. Москва: Икар. С. 154–157.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE

DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/JUP4703

Gulshan Asilova¹

Begam Qaraeva²

Abstract:

The Uzbek language is one of the ancient languages and belongs to the Turkic language group of the Altai language family. At the present, the number of Uzbek speakers worldwide exceeds 40 million people. These are primarily residents of Uzbekistan, CIS countries, as well as Europe and the USA, Canada and many other countries who can speak this language fluently and consider Uzbek as their native language. With the growing interest in the history, culture, art, Uzbek literature, national customs and traditions of the Uzbek language, the influence of the Uzbek language in the world is also growing. At the same time, there is a high need for intensive and effective methods of studying the Uzbek language, as well as for modern textbooks and teaching aids. However, there are still many problems in this area. In particular, the teaching of the Uzbek language according to international standards, based on a system of language proficiency levels, has not yet been established. The article tells about the history, development and current state of teaching the Uzbek language to foreigners. The experience gained over many years in the process of teaching the Uzbek language, the peculiarities of teaching the language as a native and foreign language are analyzed.

Key words: *the Uzbek language, language teaching, Russian-native schools, foreign language speaker, native language, second language, foreign*

¹Asilova Gulshan Asadovna – Doktor of Pedagogy (DSc), professor, University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: asilovagulshan@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0002-8462-7120

²Karaeva Begam Xolmanovna – Doktor of Pedagogy (DSc), Moscow State Linguistic University.

E-mail: karaeva_61@mail.ru

ORCID ID: 0000-0001-7793-6112

For reference: Asilova, G.A., Karaeva, B.X. 2023. "Scientific and theoretical foundations of the methodology of teaching the uzbek language". Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 1(5): 63-74. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.1.5/JUP4703.

language, Uzbek language manuals, Uzbek language dictionaries, descriptors.

References

- Agmanova, A.E. 2007. *Predikativnost': teorija i modelirovanie usvoenija vtorogo jazyka*. Monografija. Pavlodar: EKO, 259 p.
- Asilova, G.A. 2023. *O'zbek tilini o'qitish metodikasi*. Tashkent: Lesson-Press, 163 p.
- Ashurova, D.U. 2017. *Viktor Vasil'evich Reshetov – odin iz osnovatelej i pervyj rektor RPIRJaiL* // *Uzbekistonda horizhij tillar*. Tashkent, №3. Pp. 16–18.
- Belinskaja, E.P. 2011. *Smyslovye harakteristiki ponjatija «jazyk» v sovremennoj rossijskoj jetnopsihologii (na materiale nauchnyh periodicheskikh izdanij)* // *Psichologicheskie issledovanija*. Moscow, №4 (18).
- Vygotskij, L.G. 1999. *Myshlenie i rech'*. Moskow: Labirint, 352 s.
- Germanova, V. 2021. *U istokov uzbekskogo literaturnogo jazyka* // *Vesti.uz* <https://vesti.uz/u-istokov-uzbekskogo-literaturnogo-yazyka/>
- Jurayev, M.R. 2005. *O'zbek tilini davlat tili sifatida o'rgatish metodikasining shakllanishi (oliy o'quv jurtlarida davlat tili ta'limi misolida)*: Ped. fan. nomzodi dis. Tashkent, 166 p.
- Kostomarov, V.G. 1991. *Eshhe raz o ponjatii «rodnoj jazyk»* // *Russkij jazyk v SSSR*. Moskow, №1. Pp. 9–15.
- Lukashova, N.M. 2021. *Vklad russkoj intelligencii v razvitie uzbekskogo jazyka* // "CHRONOS" obshhestvennye nauki. №2 (22). Pp. 14–19.
- Muxitdinova, X.S. 2021. *O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi*. Toshkent: Vneshinvestprom. 296 p.
- Normamatov, S.E. 2020. *Jadid adiblarining o'zbek lug'atchiligi an'analari rivojidagi o'rni* // *O'zbekistonda xorijiy tillar*. №3 (32). Pp. 246–256.
- Sodiqova, Sh.B. 2017. *O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish masalalari* // XXI asr: fan va ta'lif masalalari. Tashkent, №2.
- Shchukin, N.A. 2011. *Metodika obucheniya rechevomu obshcheniyu na inostrannom yazyke*. Moskow: Ikar. Pp. 154–157.